

IQTISODIY O'SISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA TA'LIMNING AHAMIYATI

Zokirova Sayyora Alimovna

Ilmiy rahbar: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti
+998903277755

Ergasheva Zulfizar Erkin qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti talabasi
+998936718870

zulfizarergasheva111@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10081255>

Annotatsiya: Davlatlarning rivojlanganlik darajasi, ayniqsa, ularning iqtisodiyoti qanchalik rivojlanganligiga qarab belgilanadi. Rivojlangan davlatlarning ham aksariyati ta'lim orqali yuqori pog'onalariga erishgan. Ta'lim har tomonlama barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim omili, negaki iqtisodiyot rivoji uchun avvalo insonlarda iqtisodiy savodxonlik mavjud bo'lishi, iqtisodiy jarayonlarni idrok etishi lozim. Ta'lim qo'shimcha resurlar va yangi zamonaviy texnologiyalar yaratilishiga imkon beradi. Bundan tashqari, ta'lim xalqning turmush sharoitlarini, farovonligini va daromadning to'g'ri taqsimlanishini ta'minlaydi, bu esa kambag'allik darajasini pasaytiradi. Ushbu maqolada ta'limning iqtisodiy o'sishdagi roli haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: kambag'allik, YaIM, innovatsiya, inson kapitali, investitsiya, samaradorlik, talab qonuni, taklif qonuni, iqtisodiy o'sish, zamonaviy texnologiyalar, ishlab chiqarish xarajati, gender tenglik.

Avvalo, ta'limning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini anglash uchun, iqtisodiy o'sish tushunchasiga izoh berish kerak. Iqtisodiy o'sish—aholi yashash sharoitlari ijobiy tomonga o'zgarishi, kambag'allar soni qisqarishi, mamlakat yalpi ichki mahsuloti miqdori oshishi, va natijada jamoat tovarlari va xizmatlariga, masalan tibbiy xizmat, ta'lim, ijtimoiy himoya va boshqa xizmatlardan bepul va ko'p miqdorda foydalanish imkoniyatining ortishi. Yaqin-yaqingacha iqtisodchi olimlar moddiy kapitalni iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omili sifatida ko'rar edilar. Biroq, yaqin 30 yil ichidagi iqtisodiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, inson qobiliyatlari, malakasi, ko'nikmalari, ishchi kuchining oshishi va ta'lim--iqtisodiy rivojlanishga olib boruvchi eng asosiy yo'l.


Ta'limga iqtisodiyot rivojidagi ulkan hissasi uchun inson kapitali sifatida qaraladi, chunki unga ajratilgan sarmoya ishchi kuchiga ajratilgan investitsiya hisoblanadi va u doim o'zini oqlaydi. Bu Inson kapitali teoremasi deb atalib, Nobel mukofoti laureati, amerikalik iqtisodchi olim Geri Bekker tomonidan berilgan. Inson kapitali teoremasiga ko'ra, bilimga tikilgan sarmoya bir necha barobar ko'proq daromad sifatida qaytadi. Bir yillik maktab ta'limi yillik daromadni 10%ga o'stiradi, bu esa inson qiladigan har qanday boshqa investitsiyadan yaxshiroqdir. 13 ta davlat orasida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, inson kapitali mamlakat umumiy boyligining 62%ini tashkil qiladi, bu esa ishlab chiqaruvchi kapital (mashina, asbob-uskuna, binolar, kompyuterlar)dan 15 marta va tabiiy kapital (tabiiy boyliklar, o'simliklar, hayvonot, havo, suv, mineral boyliklar, qazilma boyliklar) miqdoridan 4 marta ko'pdur! Bu shuni anglatadiki, mamlakat har qancha tabiiy boyliklarga yoki moddiy kapitalga ega bo'lmasin,

ishchi kuchi yetarli darajada bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmasa, iqtisodiy rivojlanish kuzatilishi qiyin yoki kuzatilsa ham, vaqtinchalik holat hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturiga ko'ra, 2010-yilda dunyo aholisining 1,4 mlrd qismi butkul qashshoqlikda yashagan, buning 93% qismi esa Sharqiy Osiyo (Xitoy, Yaponiya, Mongoliya, Janubiy Koreya, Tayvan), Janubiy Osiyo (Afg'oniston, Bangladesh, Butan, Hindiston, Eron, Maldiv orollari, Nepal, Pokiston va Shri-Lanka) va Afrikaning Sahroyi Kabir cho'li janubidagi yerlarga to'g'ri kelgan. Bugungi kunda esa shuni ta'kidlash o'rinliki, mana dunyo qanchalik o'zgardi: Atigi 20 yil avval dunyo aholisining 29%i o'ta qashshoqlikda yashagan, hozir esa bu raqam 9%ni tashkil etadi. Albatta, bu ma'lumotlar insoniyatning iqtisodiy muammolarni yengib o'tayotganligini bildiradi. Bu natijaga esa qanday erishildi? E'tibor berib qaralsa, tobora ko'p davlatlar rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishda ta'limning qanchalik muhim qadam ekanligini anglagan holda unga katta ahamiyat qaratishmoqda, bu esa o'z navbatida ijobiy ta'sirini ko'rsatmay qolmagan va iqtisodiyot rivojlanib, kambag'allar soni mana shunday sezilarli darajada qisqargan. Masalan, 1950-yillarda Afrikada ta'lim olish atigi 2 yil davom etgan. Hozir esa bu besh yilni tashkil etadi. Sharqiy Osiyoda esa 1950—2010-yillar oralig'ida maktabda ta'lim olish davomiyligi 2 yildan 7 yilga o'sdi, bu esa 200%dan ko'p o'sish demakdir! Ushbu statistika ma'lumotlari ham ta'limning iqtisodiyotdagi o'rni naqadar muhim ekanligini tasdiqlaydi.

Ta'limning ahamiyati haqida gapirganda, iqtisodiy savodxonlikka ega bo'lish qanchalik zarur ekanligini chetlab o'tib bo'lmaydi. Albatta, hammaning sohasi va kasbi iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lmasligi mumkin, ammo har kim, qanday sohada ekanliklaridan qat'iy nazar iqtisodiyotning hech bo'lmaganda elementar tushunchalarini bilishi lozim. Eng yaxshi kadrlar o'z sohasining mutaxassisi bo'lishdan tashqari iqtisodiyot ilmidan ham yetarlicha xabardor bo'lgan kadrlardir. Negaki, iqtisodiyot har birimizning hayotimizga ta'sir ko'rsatadi. "Masalan, yetarlicha bilimlari bo'lmasa ham, odamlar iqlim o'zgarishi, Iroqdagi urush va atom elektrostansiyalari kabi turlicha savollarga o'z fikrlarini bildirishga moyildirlar. Lekin iqtisod haqida gap ketganda, ko'pchilik o'z nuqtayi nazariga ega bo'lish u yoqda tursin, hatto qiziqish bildirmaydi. Bir eslab ko'ringchi, oxirgi marta qachon yevroning kelajagi, Xitoyda boylikning tabaqalanishi yoki AQSHda ishlab chiqarish sanoati istiqbollarini muhokama qilgansiz? Vaholangki, bu muammolar siz qayerda yashashingizdan qat'iy nazar hayot tarzingizga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ehtimol, ular ish istiqboliga yoki maoshingizga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, lekin siz bu haqida jiddiy o'ylab ko'rmagansiz." [1]

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda, rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyati uchun rivojlangan davlatlar bilan raqobatbardosh bo'lishga ularning zamonaviy yuqori texnologiyalarga, investitsiyalarga yetarli darajada ega emasliklari sabab bo'lmoqda. Texnologiya ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, ishlab chiqarishga ketadigan vaqtni tejaydi va ishni osonlashtiradi. Texnologiyalarga moslashish, ularni hayotda qo'llash uchun esa ishchilarga ijodkorlik, boshqaruvchilik qobiliyatlari va sohasida mukammal bilim kerak bo'ladi. Iqtisodiyotning muhim qonunlaridan bo'lgan taklif qonunida taklifning, ya'ni ishlab chiqaruvchilar bozorda sota oladigan tovar va xizmatlarning oshishiga ta'sir qiluvchi omillardan biri texnologiya rivojlanishidir. Taklif oshishi taklif funksiyasining o'ngga siljishini bildiradi, natijada tovar va xizmatlar narxi arzonlashadi. Bunda x o'qi ishlab chiqariladigan mahsulot miqdorini, y o'qi ishlab chiqarilgan mahsulot narxini bildiradi.



www.economicshelp.org

Talab qonuniga ko'ra esa, mahsulot narxi qanchalik arzon bo'lsa, unga bo'lgan talab miqdori oshadi. Natijada, taklif va talab miqdori bir-biriga teng bo'ladi va bozorda ortiqcha mahsulot sotilmasdan qolib ham ketmaydi, yoki ularning taqchilligi ham kuzatilmaydi. Bozor iqtisodiyotidagi bu muvozanat esa iqtisodiyotning rivojlanishidir.

Masalan, qishloq xo'jaligida ham, zamonaviy texnologiyalarni ishlatgan fermerlarning ish unumdorligida an'anaviy usulda mahsulot yetishtirgan fermerlarga qaraganda sezilarli darajada ko'proq ish unumdorligi kuzatilishi isbotlangan. Taylandda esa, 4 yoki undan ko'p yil ta'lim olgan fermerlar umuman ta'lim olmagan fermerlarga solishtirganda kimyoviy o'g'itlarni qo'llashga 3 karra osonroq moslashishi kuzatilgan (Birdsall, 2003).

Albatta, ta'limning o'zigina iqtisodiyotni rivojlantirib yubora olmaydi. Ta'lim bilan bir qatorda mahalliy va xorijiy investitsiyalarini olib kirish, siyosiy muhitni shakllantirish va boshqa omillar orqali iqtisodiy barqarorlikka erishiladi.

Ta'lim inson huquqlarini ham himoya qiladi: Irqi, jinsi, dini, millatidan qat'iy nazar hammaga birdek ta'lim olish huquqi ayol-qizlarga ham o'z iqtidorlarini to'liq namoyish qilishga imkon beradi. Imkon berilsa, yashirin qobiliyatlarga ega, lekin ta'lim olish huquqi buzilgan ayol-qizlar bo'ladimi, kamsitilgan qora tanli insonlar bo'ladimi, mamlakat iqtisodiyotiga o'zlarining salohiyatlari bilan katta foyda keltiradilar. Hozirda yuqori menejerlik o'rinlarining atigi 3-6% qismi ayollar tomonidan egallangan bo'lsa-da, ko'pchilik ish beruvchilar agar ayollarni shunday lavozimlarga tayinlamasalar, ishchi kuchining deyarli 50%idagi boshqaruvchilik qobiliyatlarini yetarli baholamasliklarini anglab yetmoqdalar. Ayollar hamkorlik tashkilotlar va ijodkorlik menejment muhitida ardoqlanadigan jamoada ishlash, o'zgalar bilan til topishish kabi belgilarga egadirlar. Bundan tashqari, qizlarning ta'lim olishlari erta turmush qurish va og'ir turmush sharoitlari tufayli bolalar o'limi darajasi pasayishining oldini oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim iqtisodiy rivojlanishning ajralmas bo'lagi hisoblanadi, chunki ta'lim orqali ishga kreativ, an'anaviylikdan, stereotiplardan yiroqlashgan holda kreativ yondashiladi, zamonaviy texnologiyalar, kashfiyot va ixtirolar yaratiladi, ishlab chiqarish, eksport hajmi ortadi, barchaga barobar mehnat qilish huquqini beriladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarni ham ularning ta'lim tizimi shu yuqori darajaga olib chiqqan.

References:

1. Xa Jung Chang: "Iqtisodiyot qanday tuzilgan?", asaxiy.uz nashriyoti,

2. Omoniyi, M.B.I: "The role of education in poverty alleviation and economic development: a theoretical perspective and counselling implications".
3. <https://www.semanticscholar.org/paper/The-role-of-education-in-poverty-alleviation-and-%3A/9630b2a18fa07ad48727d1e25ebd30f8ae675842>
4. <https://www.geeksforgeeks.org/role-of-education-in-economic-development/amp/>
5. <https://blogs.worldbank.org/education/why-education-matters-economic-development>
6. <https://academic.oup.com/oxrep/article-abstract/30/1/70/559495>
7. https://scholar.google.com/scholar?q=articles+on+management+styles&hl=en&as_sdt=0&as_vis=1&oi=scholar#d=gs_qabs&t=1698607334906&u=%23p%3D3Rnmqj-kohIJ

